



"NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING HUQUQLARI TO'G'RISIDA"GI QONUNI

O'RQ-641-son, 15.10.2020-y



Nogironligi bo'lgan shaxslar — bu ayrim ishlarni bajarishda biroz qiyinchilikka duch keladigan odamlar. Masalan, kimdir yaxshi yura olmasligi, kimdir ko'ra yoki eshita olmasligi, yana kimdir tez o'rganishda qiynalishi mumkin. Lekin bu ularning boshqalardan yomon yoki kam ekanini anglatmaydi

Qonunda quyidagilar belgilangan:



Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash


Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat va davlat hayotida to'la huquqli tarzda ishtirok etishi uchun qulay sharoitlar yaratish — masalan, o'qish, dam olish, madaniy xordiq chiqarish kabi





Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya va abilitatsiya qilish. Bu nima degani? Reabilitatsiya degani — odamga yo'qotilgan kuchini qayta tiklashga yordam berishdir. Masalan, yurishni qayta o'rganish, gapirishni mashq qilish yoki sog'ligini yaxshilash. Abilitatsiya esa — odam hech qachon bajarmagan ishlarni o'rganishiga yordam berishdir. Masalan, bola mustaqil ovqatlanishni, yozishni yoki kiyinishni o'rganadi

Nogironligi bo'lgan shaxslarning sog'lig'ini saqlash va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish



Nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishi,
ushbu shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta
tayyorlash va ularning malakasini oshirish



Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat
qilishi va bandligi

Ushbu Qonunda nogironligi bo'lgan shaxs va
bolalarning barcha huquq va majburiyatlari haqida
tushunchalar berilgan, ularning ijtimoiy himoyasi,
huquqlari haqida so'z boradi